



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

OKS SIVILIZATSIYASINING XRONOLOGIYASI BORASIDA DASTLABKI ILMIY QARASHLAR

Kattayeva Gulmira Choriyevna

Termiz davlat universiteti, doktorant, dotsent (PhD)

Annotatsiya

Oks sivilizatsiyasi bronza davriga oid (mil. avv. 2300-1450) bo'lib, Qadimgi Sharq sivilizatsiyasining yangi markazi hisoblanadi. Ushbu sivilizatsiya markazi Janubiy O'zbekiston hududida shakllangan Sopolli, Shimoliy Afg'onistonda tarqalgan Dashtli, Janubiy Turkmaniston hududida hukm surgan Namozgoh madaniyatlarini o'z ichiga birlashtirgan. Maqolada Oks sivilizatsiyasining xronologiyasi bo'yicha dastlabki ilmiy qarashlar tahlil qilingan. Baqtriya-Marg'iyona arxeologik kompleksi (BMAK) yodgorliklarini davrlashtirishga oid asosiy yondashuvlar, jumladan, radiokarbon tahlili natijalariga asoslangan xronologik davrlashtirish uslublari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Oks sivilizatsiyasi, BMAK, Baqtriya, Marg'iyona, bronza davri, radiokarbon tahlili, xronologiya, Gonurtepa, Sopolli madaniyati, Namozgoh.

ПЕРВОНАЧАЛЬНЫЕ НАУЧНЫЕ ВЗГЛЯДЫ НА ХРОНОЛОГИЮ ЦИВИЛИЗАЦИИ ОКС

Каттаева Гульмира Чориевна

Термезский государственный университет, докторант, доцент (PhD)

Аннотация

В данной статье анализируется Оксская цивилизация эпохи бронзы (2300–1450 гг. до н. э.) как новый центр древневосточной цивилизации. Рассматривается её культурно-историческая общность, объединявшая Сапаллинскую культуру Южного Узбекистана, Дашлинскую культуру Северного Афганистана и Намазгинскую культуру Южного Туркменистана. Особое внимание уделяется ранним научным представлениям о хронологии Окской цивилизации и основным подходам к периодизации памятников Бактрийско-Маргианского археологического комплекса (БМАК). Анализируются методы хронологической классификации, основанные на результатах радиоуглеродного анализа, а также их значение для изучения древних обществ Центральной Азии. Результаты исследования подтверждают важную роль современных археологических и естественно-научных методов в уточнении этапов развития Окской цивилизации.

Ключевые слова: Оксская цивилизация, БМАК, Бактрия, Маргиана, бронзовый век, радиоуглеродный анализ, хронология, Гонуртепа, Сапаллинская культура, Намазга.

THE FIRST SCIENTIFIC APPROACH ON THE CHRONOLOGY OF THE OX CIVILIZATION

Kattayeva Gulmira Choriyevna

Termez State University, Doctoral Student, Associate Professor (PhD)

Abstract

This article examines the Oxus Civilization of the Bronze Age (2300–1450 BCE) as a new center of Ancient Eastern civilization. The civilization is characterized as a major cultural and historical complex that integrated the Sapalli culture of Southern Uzbekistan, the Dashly culture of Northern Afghanistan, and the Namazga culture of Southern Turkmenistan. The study analyzes the earliest scholarly views on the chronology of the Oxus Civilization and reviews the principal approaches to the periodization of the Bactria–Margiana Archaeological Complex (BMAC). Particular attention is given to chronological classification methods based on radiocarbon dating and their significance for archaeological research. The findings demonstrate the importance of modern archaeological and scientific methods in reconstructing the developmental stages of the Oxus Civilization.

Keywords: Oxus Civilization, BMAC, Bactria, Margiana, Bronze Age, radiocarbon analysis, chronology, Gonur Tepe, Sapalli culture, Namazga culture.

Ma'lumki, Qadimgi Sharq hududida mil. avv. IV ming yillikdan boshlab, Nil (Misr), Dajla, Frot (Mesopotamiya), Hind, Gang (Hindiston), Xuanxe va Yantszi (Xitoy) kabi dehqonchilik rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlarga ega bo'lgan daryo bo'ylarida sivilizatsiya shakllanishi kuzatiladi. Ushbu sivilizatsiya

markazlari ta'sirida Urartu, Finikiya, Xett, Elam sivilizatsiyalari shakllangan.

Oks sivilizatsiyasi – Qadimgi Sharq sivilizatsiyasining yangi o'chog'i bo'lib, sug'orma dehqonchilik, maishiy va uzoq yaylov chorvachiligi, shuningdek, mehnat qurollari va hunarmandchilik buyumlari ishlab chiqarish, rivojlangan savdo va monumental me'morchilikni o'z ichiga olgan murakkab iqtisodiyotga ega qadimiy protoshahar tipidagi sivilizatsiya hisoblanadi. Markaziy Osiyoning janubida shakllangan ushbu sivilizatsiya o'rta va so'nggi bronza davrlarida, taxminan yarim ming yillik ichida (mil. avv. 2250–1700-yillar) rivojlangan va tanazzulga qadar (mil. avv. 1700–1500-yillar) davom etgan. Bu Qadimgi Sharqdagi arxeologiya va san'at tarixining so'nggi diqqatga sazovor joylaridan biri bo'lib, gullab-yashnash va to'satdan g'oyib bo'lish sabablari hali ham sirli bo'lib qolmoqda [5:50-51 b.].

Ushbu sivilizatsiya Janubiy Afg'onistonda shakllangan Dashtli, Janubiy Turkmaniston hududida hukm surgan Namozgoh, Janubiy O'zbekiston va Janubiy-G'arbiy Tojikiston hududida shakllangan Sopolli madaniyatini o'z ichiga birlashtiradi va arxeologiya fanida ushbu madaniyatlar "Oks sivilizatsiyasi", "Turon sivilizatsiyasi" yoki "Baqtriya-Marg'iyona arxeologik kompleksi" (BMAK), so'nggi yillardagi tadqiqotlarda "Oks-Amu sivilizatsiyasi" va "Buyuk Xuroson sivilizatsiyasi" ("Greater Khorasan Civilization" or GKC) kabi umumiy nomlar bilan atalmoqda [20; 11; 24:7; 26; 8:72-87; 13:527-550 p.]. Bundan tashqari, adabiyotlarda "O'rta Osiyo sivilizatsiyasi", "Janubiy O'zbekiston", "Baqtriya", "Marg'iyona", "Amudaryo" sivilizatsiyasi kabi iboralar ham qo'llanilmoqda [5:42 b.].

"Baqtriya-Marg'iyona arxeologik kompleksi" (BMAK) atamasi dastlab V.I. Sarianidi tomonidan 1976-yildan boshlab tadqiqotlarida Baqtriya va Marg'iyona hududida shakllangan bronza davriga oid madaniyatlarga nisbatan ishlatilgan [5:6-7 b.]. Marg'iyona hududi geografik jihatdan Janubiy Turkmaniston hududiga to'g'ri keladi. Tadqiqotchi tomonidan Marg'iyona hududining bronza davriga oid eng yirik yodgorligi bo'lgan Gonurtepa (mil. avv. 2300–1500)da 40 yildan oshiqroq vaqt davomida arxeologik dala tadqiqot ishlari amalga oshirilib, Oks sivilizatsiyasiga oid 100 minglab moddiy madaniyat buyumlari ilmiy muomalaga kiritilgan [25]. V.I. Sarianidi Marg'iyona hududida joylashgan eneolit va ilk bronza davrlariga oid Geoksur, Ulug'tepa, Oltintepa, To'g'olok yodgorliklarida ham arxeologik tadqiqot ishlarini amalga oshirib, ilmiy izlanishlar olib borgan [25:205 p.].

Baqtriya hududi geografik jihatdan Shimoliy Afg'oniston (Janubiy Baqtriya), Janubiy O'zbekiston va Janubiy-G'arbiy Tojikiston (Janubiy Baqtriya) hududlarini o'z ichiga oladi. V.I. Sarianidi 1969–1979-yillarda Sovet-Afg'on arxeologik ekspeditsiyasi tarkibida Shimoliy Afg'oniston (Janubiy Baqtriya) hududida arxeologik qazishma ishlarini amalga oshirgan va bronza davriga oid Dashli, Qutlug'tepa, ilk temir va antik davrlarga oid Tillatepa yodgorliklarida arxeologik tadqiqot ishlarini amalga oshirgan [25:205-209 p.]. Baqtriya va Marg'iyona hududining bronza davri yodgorliklarida amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida qo'lga kiritilgan topilmalar aynan o'xshashligi sababli muallif tomonidan "Baqtriya-Marg'iyona arxeologik kompleksi" (BMAK) atamasi ishlatila boshlangan.

Shimoliy Baqtriyaning Janubiy O'zbekiston qismida dastlab Sopollitepa yodgorligi ochilib o'rganilgan [2: 6-b.; 3: 13-b.; 7: 13–14-b.], keyingi yillarda esa topilib o'rganilgan bronza davriga oid yodgorliklar umumiy "Sopolli madaniyati" nomi bilan tadqiq etila boshlandi. 2024-yil ma'lumotlariga ko'ra, Surxon vohasida ushbu madaniyatga oid yodgorliklarning umumiy soni 79 tadan oshgan [9: 14–17-b.; 10: 148–160-b.; 15: 460–469-b.; 27]. Shundan 12 tasida keng ko'lamli arxeologik qazishma ishlari olib borilgan bo'lib, ularning asosiy qismi qadimgi sug'oriladigan hududlar — Ulunbuluqsoy, Sherobod, Bandixon, Mirshodi va Poshxurt–Zarabog' botig'ida joylashgan [8: 38-b.; 9: 12–20-b.].

A.A. Asqarov va Sh.B. Shaydullayevning so'nggi tadqiqotlarida Sopolli madaniyati yodgorliklarining qurilish davri, radiokarbon tahlil natijalari hamda moddiy madaniyat namunalari (xlorit toshdan yasalgan idishlar, fayans buyumlar, fil suyagidan yasalgan predmetlar) Qadimgi Sharqning rivojlangan madaniyat markazlari moddiy madaniyati bilan qiyosiy tahlil qilingan. Natijada quyidagi davrlashtirish taklif etilgan: Sopolli (mil. avv. 2150–1900), Jarqo'ton (mil. avv. 1900–1600), Ko'zali (mil. avv. 1600–1500), Mo'lali (mil. avv. 1500–1400), Bo'ston (mil. avv. 1400–1300) [4: 45-b.]. Moddiy madaniyat buyumlarining parallel rivojlanishiga ko'ra, ushbu davr Turkmanistondagi Namozgoh VI bosqichi bilan bir vaqtga to'g'ri keladi.

Sopolli madaniyatini davrlashtirish masalasida nemis tadqiqotchilari tomonidan nashr etilgan so'nggi ishlarda mazkur davr ikki bosqichga bo'lingan [17: 28-b.; 16: 6-b.; 18: 111–112-b.; 29: 24–30-b.]: so'nggi bronza I (mil. avv. 2000–1700-yillar) va so'nggi bronza II (mil. avv. 1700–1500-yillar).

Shimoliy Baqtriyaning Janubi-G'arbiy Tojikiston hududida ham bir qator bronza davri yodgorliklari aniqlanib, o'rganilgan. Jumladan, 1967-yilda X.Yu. Muxiddinov tomonidan Parxar shahri yaqinidagi Soksonoxur qishlog'i hududidan bronza davriga oid sopol buyumlar topilgan. 1989-yilda esa

E.G. G'ulomov, R. Bezanval va L.T. Pyankov tomonidan Gelot qishlog'i yaqinida bronza davriga oid qabrlar ochilib o'rganilgan. Keyingi yillarda N.M. Vinogradova va Yu.G. Kutimov tomonidan Farxor, Gelot, Darnaychi, Kangurtut kabi yodgorliklarda arxeologik tadqiqotlar olib borilgan [6: 14–20-b.].

Tadqiqotchi N.M. Vinogradova Janubiy Baqtriya hududidagi Gelot va Darnaychi yodgorliklari Baqtriya–Marg'iyona arxeologik kompleksi (BMAK)ning rivojlangan bosqichi (Namozgoh V–VI)ga mansub ekanligini ta'kidlaydi. Shuningdek, u har ikkala yodgorlik Ko'lob shahridan 6 km shimoli-g'arbda, Jaxsuv daryosining shimoli-g'arbiy yonbag'ridagi vodiya joylashganligini hamda qablardan topilgan buyumlar Sopolli madaniyati materiallariga o'xshashligini alohida qayd etadi [28: 635–664-b.].

Tadqiqotchi N. Avanesova Turkiston-Oqto'v va Zarafshon tog' yonbag'irlarida joylashgan Zarafshon vodiysidagi bronza davriga oid Siyob, Zarcha-Xalifa, Oqsoy, To'sinsoy, Sazag'onsoy va Jom kabi yodgorliklarda uzoq yillar davomida arxeologik tadqiqotlar olib borgan. U mazkur yodgorliklardan topilgan sopol buyumlar Sopolli madaniyatining rivojlangan bosqichiga mansubligini, ayrim artefaktlar (ot yanoqlari uchun mo'ljallangan disk shaklidagi buyumlar, metall buyumlar va boshqalar) esa Andronovodan oldingi guruhlariga xos ekanligini aniqlagan. Shuningdek, tadqiqotchi ushbu yodgorliklar Baqtriya–Marg'iyona arxeologik kompleksi (BMAK)ning mahalliy (lokal) varianti ekanligini hamda Namozgoh VI bosqichi bilan parallel rivojlanganligini alohida ta'kidlagan [1; 12].

E. Lyuno o'zining 2013-yilda nashr etilgan ilmiy tadqiqotida Oks sivilizatsiyasining xronologiyasini ushbu sivilizatsiyaga oid yodgorliklardan topilgan arxeologik topilmalarni qo'shni madaniyatlar (Elam, Mesopotamiya, Hind-Eron markazlari) materiallari bilan analogik tahlil qilish hamda radiokarbon tahlil natijalariga asoslangan holda o'rgangan. Shuningdek, u Baqtriya–Marg'iyona sivilizatsiyasining xronologik tavsifiga bag'ishlangan tadqiqotchilar (P. Amiet, J.F. Jarrige, H.P. Frankfort, V.I. Sarianidi)ning ilmiy xulosalariga tayangan holda Oks sivilizatsiyasi tarixini uchta asosiy bosqichga ajratgan: shakllanish bosqichi (mil. avv. III ming yillikning birinchi yarmidan mil. avv. 2300–2100-yillargacha); rivojlanish bosqichi (mil. avv. 2300–2100-yillardan mil. avv. 1800–1750-yillargacha); so'nggi bosqich (mil. avv. 1800–1700-yillardan mil. avv. 1500–1450-yillargacha) [22: 80–85-b.].

N.A. Dubova va B. Lionne tadqiqotlarida bronza davrida Baqtriya va Marg'iyona hududlarida shakllangan sivilizatsiyalarga nisbatan “Oks sivilizatsiyasi” va “Baqtriya–Marg'iyona arxeologik kompleksi” atamaları qo'llanilgan. Ahamoniylar va ellinizm davrlarida muhim ahamiyat kasb etgan Shimoliy Afg'oniston, Janubiy O'zbekiston va Sharqiy Turkmaniston hududlari ilk yozma manbalarda Baqtriya va Marg'iyona nomlari bilan tilga olingan [24: 7-b.]. Tadqiqotchilar tomonidan ushbu sivilizatsiyaning rivojlanish davri mil. avv. 2250–1700-yillar, tanazzul davri esa mil. avv. 1700–1500-yillar deb belgilangan. Shuningdek, uning “yadro hududi” Markaziy Osiyoning janubiy qismi, ya'ni hozirgi Turkmaniston, O'zbekiston va Afg'oniston hududlaridagi Marg'iyona (markazi Gonur) hamda Baqtriya (markazlari Dashli va Jarqo'ton) madaniyatlari bilan bog'langan. Biroq Oks sivilizatsiyasiga xos moddiy madaniyat namunalari uning chekka hududlarida ham, jumladan, Tojikiston, O'zbekistonning markaziy qismi (Zarafshon vodiysi), Sharqiy Eron va Balujistonning katta qismida ham aniqlanganligi alohida qayd etilgan [24].

R. Bishone va A.A. Vahdati (R. Biscione va A.A. Vahdati) tadqiqotida Oks sivilizatsiyasi “Buyuk Xuroson sivilizatsiyasi” (“Greater Khorasan Civilization” (GKC)) deb nomlanadi va ushbu sivilizatsiyaga oid arxeologik topilmalarning O'rta Osiyoning muhim qismida hamda unga yondosh hududlarda tarqalganligi hisobga olinib, Oks sivilizatsiyasining geografik tarqalish hududi to'rtta guruhga ajratiladi: “Shakllanish hududi” (“The Formative Area”), “Asosiy hudud” (“The Core Area”), “Tarqalish hududi” (“The Expansion Area”), “Ta'sir doirasi hududi” (“The Influence Area”) [13: 527–550-b.]. Tadqiqotchilar Namozgoh madaniyati egallagan hudud Janubiy Turkmaniston bilan cheklanib qolmaganligini, balki Shirvondan Quchangacha bo'lgan yuqori Atrek vodiysi (Atrek Valley), Darreh G'oz hududi (Darreh Gaz), Mashhad va Nishopur viloyatining g'arbiy qismi, Sabzavor hududi hamda Mashhadning janubi-sharqidagi Torbat-e Jom (Torbat-e Jam) mintaqasini ham qamrab olganligini arxeologik qazishmalar natijasida qo'lga kiritilgan ilmiy dalillar asosida ko'rsatadilar. Shuningdek, ular “Buyuk Xuroson sivilizatsiyasi”ning xronologik davrini mil. avv. 2200–1700-yillar bilan davrlashtiradilar [13: 527–528, 541-b.].

L.B. Kircho tadqiqotida Janubiy Turkmaniston hududida ilk shaharsozlik madaniyatining vujudga kelishi eneolit va ilk bronza davri misolida Namozgoh madaniyatiga borib taqalishi izohlangan bo'lib, Namozgoh I dan Namozgoh VI gacha bo'lgan xronologik bosqichlar keltiriladi: Namozgoh I (NMG I, Anau IB) — ilk eneolit (mil. avv. 4500–3650); Namozgoh II (NMG II, Anau II) — o'rta eneolit (mil. avv. 3650–3200/3100); Namozgoh III (NMG III) — so'nggi eneolit (mil. avv. 3200/3100–2800/2700); Namozgoh IV (NMG IV) — ilk bronza (mil. avv. 2800/2700–2400/2300); Namozgoh V (NMG V) — o'rta

bronza (mil. avv. 2350–2000/1900) [19: 110–142]; Namozgoh VI (NMG VI) — so‘nggi bronza (mil. avv. 2000/1900–1500/1450) [22: 80–85; 23; 21: 303–308]. Oks sivilizatsiyasi xronologik jihatdan Namozgoh V (NMG V) — o‘rta bronza (mil. avv. 2350–2000/1900) va Namozgoh VI (NMG VI) — so‘nggi bronza (mil. avv. 2000/1900–1500/1450) bosqichlariga to‘g‘ri keladi.

Oks sivilizatsiyasining mutlaq xronologiyasini belgilashda radiouglerod (^{14}C) tahlil usuli asosiy ilmiy mezon hisoblanadi. M. Fontyun hammuallifligida mashhur “Oks sivilizatsiyasi dunyosi” (“The World of the Oxus Civilization”) nomli ilmiy asarning ilovasi sifatida nashr etilgan keng qamrovli tadqiqot doirasida [14: 863–911-b.] Marg‘iyona, Turkmaniston, Afg‘oniston, O‘zbekiston, Tojikiston, Hindiston, Pokiston va Eron hududlaridagi 200 dan ortiq arxeologik yodgorliklardan olingan namunalar qayta davrlashtirilgan. Mazkur tadqiqotda Oks sivilizatsiyasining xronologik bosqichlari qo‘shni madaniyatlarning qiyosiy xronologiyasi bilan solishtirilgan holda kompleks tarzda tahlil qilingan.

1-jadval. Oks sivilizatsiyasi va unga qo‘shni bo‘lgan madaniyatlarning qiyosiy xronologik jadvali[14:880-908 p.].

№	Mintaqa(madaniyat)	Yodgorlik nomi	Xronologik davri(mil.avv)	Asosiy manba
1	Marg‘iyona	Gonurtepe, Adji Kui, Togolok	2600–1400	Jungner 2004; Narasimhan 2019
2	Janubiy Turkmaniston	Namozgohtepa, Oltintepa	2900–1400	Hiebert 1994; Kohl 1984
3	Baqtriya (Afg‘oniston)	Dashly 1–3, Sho‘rto‘qay	2700–1400	Sarianidi 1977; Francfort 1989
4	Janubiy O‘zbekiston	Sopollitepa, Jarqo‘ton, Tillabuloq	2100–1600	Аскаров 1977; Huff 2001
5	Zaravshon (O‘zbekiston/Tojikiston)	Sarazm, To‘g‘ay	2400–1800	Исаков 1987; Avanesova 2003
6	Dasht madaniyati	Sintashta (Ural)	2200–1600	Kuzmina 2007
7	Hind vodiysi	Harappa, Mohenjodaro	2600–1700	Possehl 1993; Meadow 2005
8	Eronning janubi-sharqi	Shahr-i Sokhta, Hisor	3000–1700	Salvatori, Tosi 2005

Tadqiqotda radiouglerod ma‘lumotlari asosida Oks sivilizatsiyasining asosiy bosqichlari quyidagicha davrlashtirilgan:

Jadval 2.

№	Bosqich	Davr (mil. avv.)	Asosiy ko‘rsatkichlar	Asosiy xronologik sana
1	I. Shakllanish	2600–2300	Kremlin devorlar (Le-9467), 10-maydon o‘choqlari (Hel-4624)	3870–4000 BP
2	II. Yuksalish	2300–2100	Shohlar qabristoni (Poz-83487), Saroy qurilishi (Beta-33562)	3700–3870 BP
3	III. Oltin davr	2100–1900	Katta Nekropol yuksalishi, 5–12 maydon dafnlari, Tilla-Bulak 1-faza	3600–3750 BP
4	IV. Kengayish	1900–1750	Jarqo‘ton VI, Sapalli, Tilla-Bulak 2-faza, Ojakli kulolchilik	3500–3630 BP
5	V. Tanazzul	1750–1500	So‘ngi dafnlar (Le-8011), Takhirbaj kulolchilik (Gonur Jan.)	3250–3460 BP

Yuqorida keltirib o‘tilgan ilmiy ma‘lumotlar asosida quyidagilarni xulosa qilishimiz mumkin. Xususan, Oks sivilizatsiyasining xronologiyasi borasida tadqiqotchilar o‘rtasida muayyan yakdillik mavjudligini, biroq bir qator masalalar hanzugacha bahsli ekanligini ko‘rsatadi. Jahon arxeologiyasi fanida mil. avv. 2250–1700 yillar ushbu sivilizatsiyaning rivojlanish davri, mil. avv. 1700–1500 yillar esa tanazzul davri sifatida umume’tirof etilgan. M. Fontyun hammuallifligidagi radiouglerod tahlili natijalari esa ushbu

xronologiyani mutlaq sanalar asosida besh bosqichga — shakllanish, yuksalish, oltin davr, kengayish va tanazzul bosqichlariga bo'lish orqali yanada aniqlashtirdi. Janubiy O'zbekistondagi Sopolli madaniyatiga oid yodgorliklar esa ushbu xronologik tizimning Shimoliy Baktريا hududidagi moddiy isboti sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, Oks sivilizatsiyasi yagona markazdan boshqarilgan sivilizatsiya emas, balki umumiy moddiy madaniyat belgilari asosida birlashgan, mintaqaviy xususiyatlarni saqlagan murakkab sivilizatsiya tizimi bo'lganligi ilmiy jihatdan tasdiqlanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Аванесова Н.А. Зеравшанская группа памятников в контексте Бактрийско-Маргианского археологического комплекса // Археология Узбекистана. – Самарканд, 2019. – № 2(19). – С. 23–54.
2. Аскарлов А.А. Сапаллитепа. – Ташкент: Фан, 1973. – 172 с.
3. Аскарлов А.А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1977. – 232 с.
4. Asqarlov A.A., Shaydullayev Sh.B. Baktريانing bronza va ilk temir davri madaniyatlari xronologiyasi // O'zbekiston tarixi moddiy madaniyat va yozma manbalarda. – Toshkent, 2005. – B. 36–47.
5. Boqiyev A.A. Oks sivilizatsiyasining ijtimoiy xarakteri: tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Termiz, 2021.
6. Виноградова Н.М., Кутимов Ю.Г. Погребальные памятники эпохи бронзы в Южном Таджикистане (могильники Гелота и Дарнайчи). – Москва, 2018. – 276 с.
7. Karimova D.O. Shimoliy Baktريا aholisining dafn marosimlari va diniy e'tiqodlari (bronza davri moddiy madaniyat yodgorliklari misolida): falsafa fanlari doktori (PhD) diss. – Toshkent, 2017.
8. Sagdullayev A.S., Abdullayev O'.I., Matyoqubov X.X., Shaydullayev A.Sh., To'gayev J.E. Bronza va ilk temir davri yodgorliklarining geografiyasi va kartografiyasi. – Toshkent, 2019. – 272 b.
9. Hamidov O.A. Shimoliy Baktريانing Kuchuk I davriga oid yangi yodgorliklari: PhD dissertatsiyasi. – Toshkent, 2020.
10. Хамидов О.А., Каттаева Г.Ч. Типология ожерелий культуры Сапалли // Поволжская археология. – 2025. – № 4(54). – С. 148–160.
11. Ширинов Т.Ш. Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии: автореф. дис. ... д-ра ист. наук. – Москва, 1992.
12. Avanesova N.A. The Zerafshan Regional Variant of the Bactria-Margiana Archaeological Complex: Interaction Between Two Cultural Worlds // The World of the Oxus Civilization / Eds. B. Lyonnet, N.A. Dubova. – London: Routledge, 2020. – P. 665–697.
13. Biscione R., Vahdati A.A. The BMAC Presence in Eastern Iran: State of Affairs in December 2018 – Towards the Greater Khorasan Civilization? // The World of the Oxus Civilization / Eds. B. Lyonnet, N.A. Dubova. – London: Routledge, 2020. – P. 527–550.
14. Fontugne M., Zajtseva G.I., Lyonnet B., Dubova N.A., Burova N.D. Radiocarbon Dates Related to the BMAC/Oxus Civilization // The World of the Oxus Civilization / Eds. B. Lyonnet, N.A. Dubova. – London: Routledge, 2020. – P. 863–911.
15. Kaniuth K. Life in the Countryside: The Rural Archaeology of the Sapalli Culture // The World of the Oxus Civilization / Eds. B. Lyonnet, N.A. Dubova. – London: Routledge, 2020. – P. 457–487.
16. Kaniuth K. Metallobjekte der Bronzezeit aus Nordbaktrien. – Berlin: Archäologie in Iran und Turan, 2006. – 259 S.
17. Kaniuth K. The Metallurgy of the Late Bronze Age Sapalli Culture (Southern Uzbekistan) and Its Implications for the “Tin Question” // Iranica Antiqua. – 2007. – Vol. 42. – P. 23–40.
18. Kaniuth K., Teuffer M. Zur Sequenz des Gräberfeldes von Rannij Tulchar und seiner Bedeutung für die Chronologie des spätbronzezeitlichen Baktrien // Archäologische Mitteilungen aus Iran und Turan. – 2001. – Bd. 33. – P. 89–113.
19. Kircho L.B. The Rise of the Early Urban Civilization in Southwestern Central Asia: From the Middle Chalcolithic to the Middle Bronze Age in Southern Turkmenistan // The World of the Oxus Civilization / Eds. B. Lyonnet, N.A. Dubova. – London: Routledge, 2020. – P. 115–124.
20. Lamberg-Karlovsky C.C. The Bronze Age of Bactria // Bactria: An Ancient Oasis Civilization. – Roma; Venezia, 1989.
21. Luneau E. A New Assessment of the End of the Oxus Civilization (Southern Central Asia, ca. 1750–1500/1400 BCE): Overview of the Transformations of the Society // Broadening Horizons 4. – Oxford: British Archaeological Reports, 2015. – P. 303–308.
22. Luneau E. L'Âge du Bronze final en Asie Centrale méridionale (1750–1500/1450 avant n.è.): la fin de

- la civilisation de l'Oxus. – Paris, 2013. – Vol. I.
23. Luneau É., Bendezu-Sarmiento J. Étude des céramiques de l'âge du bronze de la nécropole 3 de Dzharkutan (Ouzbékistan) // Cahiers d'Asie centrale. – Paris, 2013. – № 21–22. – P. 283–291.
24. Lyonnet B., Dubova N.A. Questioning the Oxus Civilization or Bactria-Margiana Archaeological Culture (BMAC): An Overview // The World of the Oxus Civilization / Eds. B. Lyonnet, N.A. Dubova. – London: Routledge, 2020. – P. 7–66.
25. Parshikova T.S., Dubova N.A. Personal Archive of Archaeologist V.I. Sarianidi: Study, Preservation and Prospects for Use // Teoriya i praktika arkhologicheskikh issledovaniy. – 2022. – Vol. 34, № 1. – P. 204–217.
26. Pigott V.C. The Bactria-Margiana Archaeological Complex (BMAC), the Seima-Turbino Horizon and a Possible Eastward Transmission of Tin-Bronze Technology in Later Third and Early Second Millennium BCE Inner Asia // How Objects Tell Stories: Essays in Honor of E.C. Bunker. – Turnhout: Brepols, 2018. – P. 191–221.
27. Shapulatov U.X. Sopolli madaniyatining irrigatsiya tizimi: tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Termiz, 2026.
28. Vinogradova N.M. The Formation of the Oxus Civilization/BMAC in Southwestern Tajikistan // The World of the Oxus Civilization / Eds. B. Lyonnet, N.A. Dubova. – London: Routledge, 2020. – P. 635–664.
29. Teufer M. Spätbronzezeitliche Grabfunde aus Nordbaktrien und benachbarten Regionen. – Berlin: Archäologie in Iran und Turan, 2014. – 685 S.